

## **EMLASHNING BOLANING RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI**

Malikova Shavkatxon Abduhamidovna

Yuldasheva Xurshidabonu Abdusalom qizi

Obidjonova Xavasxon Odiljon qizi

2-Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi

### **Annotatsiya:**

Emlash yoki vaksinatsiya — odam va hayvonlarda infektion yuqishining oldini olish usuli. Bunda organizmga vaksinalar, immun zardoblar yoki gammaglobulin yuborib, sun'iy faol yoki passiv immunitet hosil qilinadi. Sun'iy faol immunitet hosil qilish uchun odam vaksinalar bilan emlanadi, bunda organizmda yuborilgan vaksina tarkibidagi antigenlarga qarshi faol immunitet rivojlanadi.

kasalliklar

**Kalit so'zlar:** Vaksina, tirik vaksinalar, sovuqlik zanjiri, infeksiya, immunitet, vaksinatsiya, profilaktik.

Vaksinatsiya – immunitetni kuchaytiradi va kasallikning oldini oladi. Vrach maslahatiga amal qilib, har gal tayinlangan vaqtda bolani emlashga olib borish juda muhim. Profilaktik emlashlar ona va bola kasalliklari, o'limining keskin kamayishiga, chilla davri kasalliklarining oldini olishga, sog'lom avlod shakllanishiga yordam beradi.

Vaksinatsiya – bu bolani hayot uchun xavfli bo'lgan kasalliklardan himoya qiluvchi yagona yo'ldir. Bunda shifokorning malakasi va bilimi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shifokor bolaga mutlaqo zarar yetkazmasligi kerak.

Mamlakatimizda har yili 2,5 milliondan ortiq bolalar emlanadi va emlash qamrovi hozirgi kunda 96% dan yuqori ko'rsatgichda bo'lib, aholiga 3000 dan ortiq emlash punktlari xizmat qilmoqda. JSSV va YUNISEF bilan hamkorlikda vaksinatsiyalar bilan uzlusiz ta'minlab kelmoqda. Eng muhimi esa sovuqlik zanjiri tizimiga qat'iy amal qilinib, bu borada qator tadbirlar faol olib boriladi.

Sovuqlik zanjiri nima? Bu vaksinatsiyaning ishlab chiqarilgandan boshlab, ishlatilgunga qadar bo'lgan davr. Bu davrga uning ishlab chiqarilgan korxonadan boshlab maxsus omborxonalarga olib borish vasovutgichlarni bir xil haroratda



saqlashdir. Undan so'ng avtomashinalar yordamida QVP larga yetkazish va muzlatgich tizimini kompyuterlarda kuzatib borishni talab qiladi. Bunda xatolikka yo'l qo'yilmasligi zarur.

Bugungi kunda ko'plab vaksinatsiya saqlash omborlari qurilib, foydalanishga topshirilmoqda. Jumladan, viloyatimiz bo'yicha Pastdarg'om, Kattaqo'rg'on va Jomboy tumanida ham vaksinatsiya saqlanadigan omborxonalar qurilib foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari avtomashinalar va 74 ta zamonaviy muzlatgichlar ham QVP lar ixtiyoriga o'tkazildi. Bu albatta yurtimizda bolalar salomatligiga bo'lgan e'tiborning dalilidir.

Ammo, shuncha bo'layotgan yangiliklar va qulayliklarga qaramasdan, ko'plab onalar va qaynonalar bolaning emlanishiga be'tibor bo'lishmoqda. Uch yoshga kirgan qizimni Gepatit A ga qarshi pullik emlatdim. Poliklinikaga borganimda bir nechta ayollar "shartmikan emlatish", "balki kasal bo'lmas" deya murojaat etishdi. To'g'ri bu majburiy emas. Ammo, agar bola shu kasallik bilan kasallansa vaksinadan ikki- uch barobar ko'p pul ketadi, kamiga bola azoblanadi. Emlangandan so'ng esa shifokorlar farzandimning 15 yilgacha ushbu kasallikka chalinmasligini aytishdi.

Ko'p bo'lindi, internet saytlarida Samarqand viloyatida qizamiq kasalligi avj olib, kasallanganlar soni ortib bormoqda degan gaplar tarqaldi. Viloyat sanitariya-epidemiologiya mutaxassislari bilan bo'lgan seminar treningda viloyatimizda qizamiqqa chalinganlar soni oshib ketmaganligi, bu kasallik bilan viloyat bo'yicha 371 ta emas balki 29 nafar bola kasallanganligi ma'lum bo'ldi. Buning oldini olish bo'yicha esa 26 000 ga yaqin olti oylikdan bir yoshgacha bo'lgan bolalar muddatidan oldin emlanganligi ham aytib o'tildi.

Suhbat jarayonida yana bir narsa ma'lum bo'ldiki, mustaqillikdan so'ng 1991, 1992, 1993, 1994 yillarda "difteriya" kasalligiga qarshi emlashda oqsoqliklar bo'lgan va 50 % gacha bolalar emlanmasdan qolganligi aytib o'tildi. Buning dalili esa o'sha yillarda tug'ilgan bolalarning ko'pchiligi ushbu kasallik bilan kasallangan.

Shunday ekan farzandlarimizni har bir kasallikka qarshi emlanishiga e'tiborli bo'laylik. Tibbiyotda vaksinatsiya poliklinikada, maxsus vaksina o'tkazish markazlarida o'tkazilmoqda. Vaksina o'tkazayotgan shifokor yetarlicha bilim va mahoratga ega bo'lishi, ayniqsa bir yoshgacha bo'lgan bolalarda ayrim guruh vaksinalari qat'iy jadval bo'yicha va shifokor nazorati ostida o'tkazilishi shart.

Emlashda vaksinalarni teri ustiga, teri ostiga, muskul orasiga, burun va og‘iz orqali yuborish mumkin. Vaksinalar bilan emlash jadvali har xil: bir marotaba, ikki, uch marotaba va hokazo. Sun’iy faol immunitet immunizatsiya tugaganidan so‘ng 2-3 hafta o‘tgach paydo bo‘ladi va oylab, hatto yillab saqlanib qoladi. Takror emlash (immunitet darajasi susayganda) revaksinatsiya deb ataladi.

Sun’iy passiv immunitet organizmning himoya faoliyatini oshirish, ko‘zda tutilgan tegishli yuqumli kasallikka qarshi chidamlilik yoki boshlangan kasallikning kechishini yengillashtirish maqsadida qilinadi. Bir qancha yuqumli kasalliklar (odamlarda gepatit

V, sil, bo‘g‘ma, qoqshol, ko‘kyo‘tal, qizamiq, tepki, poliomiyelit; hayvonlarda brutsellyoz, quturish, o‘lat, oqsim va boshqalar)ga qarshi rejali ravishda; ayrim yuqumli kasalliklar (gripp, ich terlama, kuydirgi, tulyaremiya va boshqalar)ga qarshi esa epidemiologik zaruriyat bo‘yicha emlanadi (Shuningdek qarang: Immunoprofilaktika).

Emlash poliklinikalarda yoki emlash markazlarida maxsus tayyorlangan tibbiyot xodimi tomonidan vrach nazoratida o‘tkaziladi. Bolani emlashdan avval uning gavda harorati o‘lchanadi va qanday kasalliklar bilan og‘iganligi so‘rab surishtiriladi; vrach bolani sinchiklab tekshirib, uni emlash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlaydi. Yuraktomir, markaziy nerv sistemasi kasalliklaridan tuzalgan yoki surunkali kasalliklari bor bolalar tegishli muhassislar ko‘rigidan o‘tganidan so‘ng emlanishi lozim. Bola emlanganda ba’zan kuchli reaksiya yuzaga keladi, shuning uchun emlangandan keyin u ma’lum bir vaqt davomida vrach nazoratida bo‘lishi kerak.

Emlash mahalliy va umumiyligi ta’sir ko‘rsatishi, ya’ni emlangan joy sal qizarishi, shishishi, og‘rishi, harorat ko‘tarilishi va umumiyligi darmonsizlik kuzatilishi mumkin. Emlangan bola juda bezovtalansa, qattiq isitmalasa darhol vrachga murojaat qilish zarur.

Bolalar yoki kattalarning emlanganligi haqidagi ma’lumotlar ularning tibbiy hujjatiga qayd etiladi. Ota-onalar bolasiga qanday emlash o‘tkazilganini va qaysilari qachon qilinishi kerakligini yaxshi bilishlari, shuningdek, emlashning belgilangan muddatda o‘tkazilishiga amal qilishlari zarur, chunki o‘z vaqtida o‘tkazilgan emlash juda yaxshi naf beradi.

Bugungi kunda Respublikamizda ko‘pgina og‘ir kechuvchi yuqumli kasalliklarga qarshi rejali ravishda va epidemiologik holatlarga qarab bolalar va xavfli guruhga

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities  
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

**Date:** 1<sup>st</sup> January, 2024

**ISSN:** 2835-3196

**Website:** econferenceseries.com

kiruvchi katta kishilar davlat tomonidan bepul emlanadi. O‘tkazilgan chora-tadbirlar tufayli O‘zbekiston hududida shol kasalligi oxirgi yillarda qayd etilmayapti, shuningdek, bo‘g‘ma, qizamiq, tepki, gepatit B kasalliklari bolalar orasida keskin kamaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz>
2. <https://uzpharmagency.uz/oz/news/bolalarda-emlash>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Emlash>